

ABDULLA QODIRIY MILLAT SHUURINI UYG'OTGAN ADIB

*Ismoilova Tuyg'unoy Bektosh qizi
I.Karimov nomidagi TDTU "HFX" kafedrasi talabasi*

Annotatsiya

Abdulla Qodiriy o'zbek adabiyotining yorqin namoyandasi bo'lib, o'z asarlari orqali millatning ongini uyg'otishga katta hissa qo'shgan. Uning "O'tgan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlari o'zbek xalqining tarixiy xotirasini tiklashga, milliy qadriyatlarni anglashga undaydi. Qodiriy o'z asarlarida milliy o'zlikni anglash, mustamlakachilikka qarshi kurash va millatning ma'naviy uyg'onishi mavzularini yoritib o'tgan. Uning ijodi o'zbek xalqining milliy ongini uyg'otishda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Kalit so'zlar: Abdulla Qodiriy, millat, qadriyat, uyg'otish, o'zlik, ma'naviy, ong.

Аннотация

Абдулла Кадырий был ярким представителем узбекской литературы, который своими произведениями внес большой вклад в пробуждение сознания нации. Его романы "минувшие дни" и "Скорпион из Мехроба" призваны возродить историческую память узбекского народа, осмыслить национальные ценности. В своих произведениях Кадыри затрагивал темы национального самосознания, антиколониальной борьбы и духовного пробуждения нации. Его творчество продолжает играть важную роль в Пробуждении национального сознания узбекского народа.

Ключевые слова: Абдулла Кадири, нация, ценность, пробуждение, идентичность, духовность, сознание.

Annotation

Abdullah Qadiriy was a brilliant exponent of Uzbek literature and contributed greatly to the awakening of the nation's consciousness through his works. His novels "Days Gone By" and "Scorpio from Love" encourage the restoration of the historical memory of the Uzbek people, awareness of national values. In his works, Kadiri covered themes of national identity awareness, anti-colonialism, and the spiritual awakening of the nation. His work has been instrumental in awakening the national consciousness of the Uzbek people.

Keywords: Abdullah Kadiri, Nation, value, awakening, self, spiritual, consciousness.

KIRISH

Abdulla Qodiriy — O'zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, u millat shuurini uyg'otgan adib sifatida tan olingan. Uning asarlari O'zbekiston tarixida muhim rol o'yaydi va o'zbek xalqining ma'naviy va madaniy rivojlanishiga katta hissa qo'shib kelmoqda. Qodiriyning eng mashhur asarlaridan biri "O'tkan kunlar" romani bo'lib, unda o'zbek xalqining turmush tarzi, an'analari va qadriyatlari tasvirlangan. U, shuningdek, o'zbek tilining go'zalligini va uning imkoniyatlarini ochgan, tilni boyitish ustida ishlagan. Adibning ijodi milliy istiqlol g'oyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'z zamonasining ijtimoiy-siyosiy muammolarini o'z asarlarida yoritgan. Abdulla Qodiriy o'zining kuchli slovyasi va chuqur fikrlari bilan

o'zbek millatining ma'naviy uyg'onishiga hissa qo'shgan. Uning merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili

"O'tkan kunlar" romani orqali xalqning milliy ongini uyg'otmoqchi, "tariximizning eng kir, qora kunlari"-yurtni mustamlaka balosiga yo'liqtirgan keyingi noahil "xon zamonlari"-dan so'z ochib, bu ayanchli haqiqatdan xalqqa saboq bermoqchi bo'ldi. Romanning ma'no-mazmun doirasi nihoyatda keng. Unda xilma-xil insoniy taqdirlar, ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, oilaviy muammolar qalamga olingan. Biroq ular orasida yurtning taqdiri, mustaqilligi masalasi alohida ajralib turadi. Asarning bosh qahramonlari Otabek va Yusufbek hoji shu yurt istiqlolli, farovonligi, osoyishtaligi yo'liga hayotini, jonini tikkан fidoyi kishilar sanaladi. "O'tkan kunlar" romani bamisolı ulkan va tiniq ko'zgu, unda o'zbek millatining muayyan tarixiy sharoit, vaziyatdagi turmushi, urf-odatlari, ruhiy ma'naviy dunyosi, bo'y-basti, qiyofasi keng ko'lamda aniq-ravshan tasvirlanadi. Romandagi uchlik -oshiq, ma'shuqa va ag'yor, bir qarashda, an'anaviy ishq dostonlarini ham eslatadi. Unda Otabek bilan Kumushning toza muhabbat, ishqiy kechinmalari, baxti va baxtsizligi juda zo'r mahorat bilan ko'rsatiladi. Asardagi juda kam insonlar qalbidan chuqur joy oladigan bir "durri beabajo" -ishq-muhabbat tuyg'usiga doir inja tafsilotlar kitobxонни hayajonga soladi. Otabek bilan Kumushning saodatli onlaridan mahrum etgan fojaviy sahnalar kishini chuqur o'yga toldiradi. Muallif oshiqlarning ishqiy sarguzashtlari bahonasida muayyan tarixiy davrni - Turkistonning rus bosqini arafasidagi ahvoli, qora kunlarini ko'z oldimizda gavdalantiradi. Ayni damda o'lkaning tutqunlikka tushishining bosh sababi jaholat, qoloqlik va o'zaro ichki nizolardir, degan fikrni g'oyat ustalik bilan as arning mazmun-mohiyatiga singdiradi. "O'tgan kunlar" romani mehnatkash xalqqa chuqur hurmat ruhi bilan sug'orilgan. Yozuvchi Hasanali, usta Olim, Saodat, Oybodoq singari mehnatkash xalq vakillari obrazlarini mehr bilan tasvirlagan. Jumladan, Yusufbek hojining xizmatkori Hasanali uddaburro, tadbirli, sadoqatli, aqli, g'amxo'r, vijdoni pok, mehribon -umuman oddiy insonga xos eng yaxshi fazilatlarni o'zida mujassamlantirgan kishi obrazi sifatida kitobxon hurmatiga sazovor bo'ladi. «O'tgan kunlar» romanida xotin-qizlar obrazi salmoqli o'rin egallaydi. Yozuvchi xotinqizlarning Kumushbibi, Zaynab, O'zbek oyim, Oftob oyim, Saodat, Oybodoq, To'ybeka, Xushro'ybibi, Jannat kampir kabi o'nlab xilma-xil obrazlarini yaratgan. Asarda, Kumushbibi vafodorlik, go'zallik va samimiyligining ramzi bo'lsa, Xushro'ybibi ichi qoralik va shumlik, battollik va yomonlik, behayolik va urshqoqlik, o'jarlik va xudbinlik timsolidir. "O'tgan kunlar" romanidagi obrazlarning har biri o'zicha bir olamki, ular hech qachon bir-birini takrorlamaydi. Ularning hammasi ham yuksak darajada mahorat bilan yaratilgandir. Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asari o'zbek roman chiliginining birinchi cho'qqisidir. Ijodkorning mahorati yana shunda ko'rinadiki, u o'zi mansub bo'lgan xalqning hayotini milliy til vositasida tasvirlayotganida tarixiy hodisalar orqali milliy qahramon va milliy urf-odatlarni bir-biriga o'yg'unlashdirib yuboradi. "Mehrobdan chayon" romani. O'zbek adabiyotining ikkinchi yirik romani ham Abdulla Qodiri qalamiga mansub. "Mehrobdan chayon" romani 1928-yili

fevralda yozib tugatilgan. 1929-yil Samarqand shahrida bosilib chiqqan. Bu roman mavzusi ham “O’tkan kunlar” mavzuyiga monand “xon zamonlari” davridagi o’zboshimchaliklar tasvirlangan. Asarning nomi ham ramziy, chunki unda adib ziyoli ulamolarni qahramon qilib tanlab sajdagohdan chiqqan, unga nomunosib munofiq, qallob, tuban kimsalarga, e’tiqodsiz, hasadgo’y kishilarga nishonadir. Maktabdor Solih mahdumning humoristik obrazi yozuvchining jiddiy yutug‘i sifatida e’tirof etilgan. Romanda Anvar va Ra’noning sevgi sarguzashtlari shoirona tarzda tarannum etiladi. Go’zallik, halollik, ollyjanoblikka intiluvchi Ra’no xalq fe’latvoriga xos, ajoyib qiz, samimi, toza niyatli, ma’nan sodda va ochiq. U Anvarni yorqin sevgi ila beg’araz va sadoqat bilan yaxshi ko’radi. Anvar-mardlik timsoli,adolatli, cheksiz vijdon egasi. “Mehrobdan chayon” romani asosida ham film suratga olingan. Abdulla Qodiriyning yana bir yirik asari –“Obid ketmon” qissasi 1934-yilda yozilgan bo’lib, bu asar ham boshqalari kabi yozuvchining ulkan mahoratini o’zida mujassam etgan. Barcha zamonlarda ustuvor bo’lgan “Sen yerni boqsang, yer seni boqadi”, degan qarash ushbu asarning bosh mavzusidir.

Xulosa

Abdulla Qodiriy millat shuurini uyg‘otgan adib sifatida o‘z asarlari orqali xalqni ma’rifatga, ozodlikka va yangilanishga chorlaydi. Uning ijodida milliy qadriyatlar, inson erki, va adolat masalalari markaziy o’rin tutadi. “O’tgan kunlar” va “Mehrobdan chayon” kabi romanlari orqali Qodiriy o‘z davrining muhim muammolarini ohib bergen. U insoniyatning ma’naviy uyg‘onishiga intilib, milliy iftixor va o’zlikni anglashning ahamiyatini ko’rsatgan. Shu sababdan Abdulla Qodiriy milliy adabiyotimizning eng yuksak arboblaridan biri sifatida e’tirof etiladi.

Foydalaniman adabiyotlar

1. А.Қажхор. Асарлар. ТВИ. Тошкент: Адабиётвасанъатнашриёти, 1970.
2. Ў.Носиров. Ижодкоршахсбадиййислуб, авторобрази. Тошкент: Фан, 1981.109
3. А.Қодирий. “Ўтганкунлар” Тошкент: Адабиётвасанъатнашриёти, 1974
4. И.Султон. Адабиётназарияси. Авторнутқиваперсонажнұтқы. Тошкент: Ўқитувчи, 1980.